

Boshlang'ich Ta'limda Pedagogik-Innovatsion Faoliyat Yosh Avlod Ta'lim-Tarbiyasining Muhim Omili Sifatida

Adilova Munisa Furkatovna¹, Mirzraximova Zebunisso Raxmatillayevna²

Annotatsiya: Maqlada boshlang'ich ta'limda pedagogik-innovatsion faoliyat pedagoglar uchun bilim berish, ijod kurtaklarini topish va rivojlantirish hamda muloqot qilish imkoniyati bo'lsa, ta'lim oluvchilar uchun esa ijodkorlik asosida bilimlarni "egallab olish", yaratuvchilik bilan quvonchni, o'z-o'ziga ishonchni va psixologik qulaylik muhitini doimiy ta'minlaydigan jarayon sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ta'lim maydoni, innovatsion faoliyat, o'quv mashg'uloti, o'qituvchi, o'quvchi, savodxonlik, shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlar, texnologiyalar, topshiriqlar, sahnalahtirilgan ijodkorlik o'yinlari va munozaralar.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga yo'naltirilgan vaziyatlarning mohiyati ularni turli fanlarga qiziqtirish, ta'limning o'zaro ta'siri doirasida o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlarini saqlab qolishdir. Har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining uslubiy arsenalida kichik yoshdag'i o'quvchilarning bilim faolligini oshirish usul, mazmun va vositalar mavjud bo'lib, bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli jalb qilish uchun xizmat qiladi. Albatta bu shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlar, texnologiyalar, topshiriqlar, sahnalahtirilgan ijodkorlik o'yinlari va munozaralar bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda biz o'quv mashg'ulotlarida foydalanadigan shaxsga yo'naltirilgan vaziyatlarni ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich ta'limda har bir yangi o'quv mashg'ulotini boshlashdan oldin o'quvchilarga psixo-emotsional qulay muhitni yaratish, ya'ni ular bilan aloqa o'rnatish uchun kayfiyat va hissiy holat haqida fikr yuritish tavsiya etiladi. Masalan, Yer yuzida barcha narsalar go'zal. Osmon go'zal, atrof go'zal. Menda hamma narsa ajoyib.

Shuningdek, darsni boshqa yo'l bilan boshlash mumkin: - Bizning bugungi salomlashuvimiz "Kaftdan kaftga" deb nomlanib, kaftlarimizni bir-birimizga tekkizib so'rashamiz. Shundan so'ng o'quvchilarga: Nimani his qildingiz? Qo'llaringiz qanchalik issiqligini his qilyapsizmi? Siz bilan bugungi muloqotimiz ham xuddi shunday iliq bo'ladi" - deya intriga (qiziqish uyg'otish) holatlari bilan o'quv vazifasini qo'yishda ko'rish mumkin.

Boshlang'ich ta'limning Savodxonlik darslarida mashqlarni bajarish ham shaxsga qaratilgan vaziyatdir. Masalan, 1-sinflar uchun Savodxonlik darsi sifatida "O'zbek alifbosi bilan xayr" mavzusida "Mukammal do'stlik" o'yini tavsiya etiladi. O'quvchilarga bu o'yin orqali do'stlik uchun juft tanlash topshiladi. Alifboda ko'p maqlol va matallarni o'qiymiz. Lekin siz ularni eslaysizmi? Qizlar uchun maqlolning boshi va o'g'il bolalar uchun esa oxirini aytish topshiriladi.

Boshlang'ich ta'limning Ona tili darslarida fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni tashkil etishda ham interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

¹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi. Toshkent, O'zbekistan

² TDPU, BT-4-bosqich talabasi

² senior teacher, Ferghana state university

² master's degree student, Ferghana state university



Ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi uning hayotiylik, yashash shart-sharoitlarini belgilab berdi. Rivojlanishi va istiqboli qonun yo`li bilan kafolatlandi.

Boshlang'ich ta'lurma og'zaki nutqning to'laligicha adabiy holatga keltirilishini ta'minlash kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining talaffuz jarayonini me'yorlashtirish bilan bog'liq. Og'zaki nutq ishlataladigan qaysi soha bo'lishi va qanday uslubda ifodalananishidan qat'iy nazar, barcha o'rnlarda til birliklarini bir me'yorga keltirib qo'llash masalasi birinchi o'rinda turadi. Orfoepik me'yorlarga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo`lib qoladi.

Yosh avlodning talaffuz me'yorlarini buzishi va ularning til madaniyatiga e'tiborsizlik jamiyatda savodsizlikni kuchaytiradi. Shu sababdan ham yoshlarni hamisha nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qildirishimiz va talaffuz etilayotgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashini ta'minlashimiz lozim.

Yoshlarning notiq bo`lishi shart emas, biroq fikrini, tushunchalarini to`g'ri va aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharaqli burchidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, boshlang'ich ta'limning Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari mazmunida chet el lug'atlaridagi so'zlardan keng foydalanilgan. Biroq bu so'zlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining talaffuz jarayoninida birmuncha qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Chunki bu so'zlar nafaqat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga, balki katta yoshli kishilar uchun ham murakkabdir. Masalan, 3-sinf darsligininig Ona tili va o'qish savodxonligi darslida texnologiya, sensor, virtual, pigmalion so'zlarini texnalo'giya, sinso'r, virtual, pigmalion kabi imloviy xatoliklarni keltirib chiqarishi tabiiydir.

Shu sababli ona tilimizning o'ziga xos nafosatini o'quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida "Imlo qoidalari" topshiriqlari bo'yicha biz "Kakografiya" va "Korrektor" interfaol usullaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Kakos lotincha – yomon, xunuk, yoqimsiz va **graphos** – yozmoq so'laridan olinganligi sababli "Kakografiya" usuli matnda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan muayyan imloviy xatoliklar(qulorra yoqmaydigan, yoqimsiz, nosoz, g'aliz ma'nolarni beruvchi so'zlar)ni tuzattirishni o'rgatish maqsadida qo'llaniladi.

Demak, bu usul uyg'unlashmagan, yoqimsiz tovushlar yig'indisi bo`lib, unda yozuv bilan bog'liq g'alizlik orfografik nuqtayi nazar bilan didaktik jihatdan ochib berilishi masalaga oydinlik kiritadi.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o'quvchilar mustaqil fikrlash, narsalarni bir-birlari bilan solishtirish, izlanish, masalaning yechimini topish, eng muhimi Ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ayniqa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo'limlari bilan bog'liq amaliy darslarni o'tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o'quvchilarga unli va undosh tovushlar bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgach, "Mustahkamlash darslari" yoki "Takrorlash darslari"da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning aytilishi va yozilishi o'rtasidagi farqqa qaratiladi.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarining aksariyat qismi Ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o'zlashtirmay, so'zlarni qanday talaffuz qilinsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. O'quvchilarining nutqidagi dialektal xatoliklar ulardagi savodxonlik darajasining pasayishiga va muntazam so'zlearning xato yozilishiga sabab bo'ladi. Masalan, baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas'ul, daryo kabi so'zlarni o'quvchilar og'zaki nutqida boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma'sul, dayra tarzida talaffuz qilishlari va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu ularning unli va undosh harflar imlosini to'g'ri anglashga yordam berib, ona tili bo'yicha yetarlicha bilimga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida o'quvchilarga tegishli nazariy ma'lumotlar berilgach, quyidagi topshiriqlari bajarish topshiriladi: So'zlarni o'qing, xato yozilgan o'rnlarni topib, imlo qoidalariga mos



ravishda ularni to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chirib yozing. Bugalter, hayol, xayol, xolol, momila, xuqiq, direktir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo. To‘g‘ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, direktor, konferensiya, kompyuter, majlis.

Shuningdek, 4-sinf Ona tili darsida “Imlo muammosini hal qilish” mavzu bo‘yicha dars “Korrektor” ishbilarmonlik o‘yini shaklida o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘zlarini tahririyatda deb tasavvur qilishib, korrektorlik vazifasi bosmaxona xodimi bo‘lgan muharrir zimmasida ekanligini aniqlaydilar. Demak, o‘quvchilar oldindan muharrir kimligini, u qanday ish bilan shug‘ullanishini bilib oladi. Ona tili darslarini zerikarli va yoqimsiz qiladigan o‘nlab qoidalarni an'anaviy va qiziq bo‘lmagan tarzda burish va takroriy mashqlarni bajarish o‘rniga, darslarga amaliy ahamiyat berish foydalidir.

Shuningdek, 4-sinfda Ona tili darslarida, o‘quvchilarga tanlash taklifi sifatida 3 darajadagi vazifalarni taqdim qilish mumkin.

O‘quvchilar o‘z darajasini tanlaydilar va topshiriqni bajaradilar:

1-daraja - xatolarni toping va tuzating;

2-daraja – xatoga yo‘l qo‘yilgan so‘zлarni guruhlarga taqsimlang:

a) lug‘at so‘zлari;

b) ildizdagi unli;

v) boshqa imloga ega so‘zlar;

3-bosqich - bu qizga javob yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning sub'ektiv fikrini bayon qilish imkoninin beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ilgari o‘rganilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni individual tekshirish usulini tanlashni taklif qiladi: atamalarni tushuntirish, aniq atamalarga tavsif berish; mikrokollektivda berilgan savollarga javoblarni muhokama qilish; atamalarning sinonim va antonimlarini topish kabi topshiriqlarini beradi.

So‘nggi paytlarda bolalar test topshiriqlarini tanlashlari qayd etildi. Va bu shuni anglatadiki, ular o‘zlarini tanlov holatiga qo‘yishadi, chunki 3 ta javobdan bittasini to‘g‘ri tanlashingiz kerak. Ushbu darsda foydalanilgan test topshirig‘i. Biz boshlang‘ich ta’limda ajralmas bo‘lgan quyidagi o‘yin vaziyatlari keldik.

Boshlang‘ich ta’limning 3-sinfi uchun tashkil etiladigan “Atrofdagi olam” darslarida “Sayyora bo‘ylab sayohat” mavzu si bo‘yicha o‘quvchilarga Dunyo mamlakatlari bo‘ylab sayohat qilishga “Chipta sotib oling” biznes o‘yinini qo‘llash yuqori samara beradi. Chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etishlari orqali ularda bilimga va fanga bo‘lgan qiziqish ortadi. O‘yin shakllarini o‘quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish haqiqatan ham ko‘pchilik o‘quvchilarning bilimlarni tez o‘zlashtirishlariga, bu esa o‘z navbatida ta’lim natijalarining oshishiga olib keladi.

Muvaffaqiyat hissi bo‘lmasa, bola maktabga va o‘quv faoliyatiga qiziqishni yo‘qotadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlashda eng muhim jihat - bu muvaffaqiyat holatini yaratishdir. Chunki bu sinfda ijobjiy hissiy kayfiyat muhitining shakllanishiga zamin bo‘ladi. Bolalar o‘zlarining kuchlari va imkoniyatlariga ishonchni singdirishlari, muvaffaqiyatga erishish holatiga intilishlari lozim. Buning uchun esa o‘qituvchi motivator vazifasini bajarishi maqsadga muvofiqdir. Ya’ni, u: “Siz buni qila olasiz”, “Siz muvaffaqiyatga erishasiz”, “Men sizning uddalashingizga ishonaman” “Men doimo siz bilanman” “Men sizga hamisha ko‘makdoshman”, “Men sizning fikrlariningizni, xatti-harakatlariningizni qo‘llab-quvvatlayman” qabilidagi so‘zlar bilan o‘quvchilarga muntazam uqtirib turishi lozim. Bu holat o‘quvchilardagi “qo‘rquvni yo‘qotish”, “muvalqaqiyatli natija uchun rag‘batlantiriah”, “motivni kiritish”, “o‘z harakatlarini yuqori baholash” kabi muvaffaqiyatlari vaziyatlarni ta’minalashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidalsh joizki, boshlang‘ich ta’limda dars – o‘qituvchilar uchun bilim berish, ijod kurtaklarini topish va rivojlantirish hamda muloqot qilish imkoniyatidir. O‘quvchilar uchun esa - bu kashfiyot quvonchi, ishonch va psixologik qulaylik muhitida doimiy ijodkorlik bilan bilimlarni “egallab olish”dir.



Demak, boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi o'zining innovatsion faoliyatida yoshlarga ta'lism-tarbiya berishda ularning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi va rivojlantirishi imkoniyatini beruvchi vaziyatlarni timilsiz o'ylab topishi lozim.

Adabiyyotlar:

1. Adilova M.F. (2022). Innovation yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish. *Integration of science, Education and practice. Scientific-methodical journal*, 3(7), 99-106.
2. Adilova M.F. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. *Eurasian Scientific Herald*, 10, 53-58.
3. Adilova M.F. (2022). Psychological and pedagogical factors of innovative approach to the formation of communicative competence of the future teacher. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 304-308.
4. Адилова М.Ф. (2021). Формирование экологической культуры у учеников начального образования на основе медиатехнологий. *Science and Education*, 2(6), 543-546.
5. Адилова М.Ф. (2020). Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы. *Science and Education*, 1(7), 452-455.
6. Adilova M.F. & Ergasheva, G.M., Sotiboldieva S.J., (2020). Comprehensive approach to assessing students knowledge in primary school based on the international assessment program in the republic of Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (1), 56-62.
7. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021)- Б.567-570.
8. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / “Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент шахридаги ЁДЖУ техника университети, 2021 йил 21 апрель. Электрон тўплам. З-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.
9. Салаева М.С. Педагог профессионализмининг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / “Педагогические и психолингвистические особенности развития, формирования и становновления личности врача” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Самарқанд давлат тиббиёт институти, 2021 йил 5 май. Электронный сборник. СамГМИ. 5 мая 2021 года. – С.178-180.
10. Салаева М.С. Профессионал даражага эришиш мақсадида педагогнинг виртуал мобиллигини ривожлантириш / “Хорижий тилларни ўқитишнинг долгзарб масалалари: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро онлайн илмий-амалий конференция. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети, 2021 йил 5 май. Электрон тўплам.. 2021 йил 5 май. – Б..230-234.
11. Салаева М.С. Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак педагогларнинг виртуал академик мобиллигини шакллантириш // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.
12. Салаева М.С., М.Джумабаева. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali. ISSN (E) – 2181 – 1334. Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021. Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz



13. Salaeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 83–91. ISSN 2181-3558. VOLUME 1, ISSUE 3. AUGUST 2022. DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>
14. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G. & Radjabova D.A. (2022). Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION, 1(43). Pp.10571-10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>
15. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессиоанализмининг шаклланиши касбий қадрият сифатида намоён бўлиши // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center. www.in-academy.uz. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022 Pages 183 -188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>
16. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

